

DJAZ YO'NALISHINING O'ZBEKISTONDAGI TARAQQIYOT YO'LI**Abduxalilov Jamshid Xurramovich**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada djaz yo'nalishining o'zbekistondagi taraqqiyot yo'li haqida so'z yuritilgan bo'lib, musiqiy tovushlar va ularning xususiyatlari, turlari va musiqa asboblarning chiqaradigan tovushlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: djaz, tovush, musiqa, balandlik, qattqlik, tembr, cho'zim, past, baland.

Biz yashayotgan olam turli tovushlarga to'ladir. Misol uchun: guvillagan, taqillagan, shitirlagan, g'ichirlagan va boshqa shunga o'xshash tovushlarning barchasi real voqelikdagi tovushlardir. Bularni *shovqinli tovushlar* deb atashadi. Kuylayotgan qo'shiqchining ovozi va musiqa asboblari – rubob, nay, chang, skripka, fortepiano, goboy, truba va boshqa cholg'u asboblardan taraladigan tovushlar *musiqiy tovushlar* deb nom oldi.

Barcha tovushlar baland va past yoki uzoq va qisqa vaqt yangrashi, shu bilan birga o'ziga yarasha rang-barangligi bilan farqlanadi. Shovqinli bilan musiqiy tovushlar o'rtasidagi farqi shundaki, har bir musiqiy tovush aniq belgilangan balandlikka ega bo'ladi. Shovqinli tovushlar esa bunday xususiyatga ega emas.

Musiqaning asosiy vositasi, ya'ni ifodalilik vositasi – musiqiy tovushlardir. Lekin zamonaviy musiqada shovqinli tovushlar ham keng qo'llaniladi. Tovushlar tizimi musiqiy fikrni ifodalash va badiiy obrazlarni gavdalandirish uchun xizmat qiladi.

Har bir musiqiy tovushning xarakteri to'rtta asosiy xususiyatlar bilan aniqlanadi. Ular *balandlik*, *qattqlik*, *tembr* va *cho'zim*. Tovushning *balandligi* tebranayotgan jismning *tebranish tezligiga* bog'liq. Tebranish qanchalik tez bo'lsa, tovush shunchalik baland eshitiladi, va aksincha. Demak, tovushlar balandligi bo'yicha baland, o'rta va past tovushlarga ajratiladi. Baland tovushlar «nafis», «muloyim»,

«jarangli», «billur» kabi so'zlar bilan ta'riflanishi mumkin. Xor asarlardagi soprano ovozi partiyasi asosan o'z ichiga baland tovushlarni qamrab oladi. Skripka, fleyta, nay cholg'ular ham baland tovushlarni taratadi. Past tovushlar – «yo'g'on», «qo'polroq»

«chuqur», «mayin» kabi so'zlar bilan ko'proq ta'riflanadi. Musiqa asboblardan truba, kontrobas, fagot kabilar past tovushlarga ega. O'rta tovushlar xor ovozlari alt bilan tenor, cholg'ulardan violonchel, klarnet, valturna, rubob, dutorga xarakterlidir. Ularga nisbatan «yumshoq», «qalin», «odam ovoziday» so'zlarni qo'llash mumkin.

Tovushning *qattqligi* jismning *tebranish kengligi* (amplitudasi) dan kelib chiqadi. Tebranish kengligi qancha keng bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi, va aksincha. Qattqlikning darajasi (jaranglash kuchi) *dinamika* so'z bilan ataladi.

Tovushning *cho'zimi* jismning tebranishi davom etishiga bog'liqdir. Real vaqt soniya, daqiqa, soat va hokazolar bilan o'lchanadi. Musiqadagi vaqt muayyan tovush cho'zimi bilan o'lchanadi. Musiqada har bir tovush o'z cho'zimi bo'yicha undan oldingi va keyingi tovushlar bilan muayyan darajada aniq uyushtiriladi, vaqt bilan belgilanadigan munosabatga kirishadi. Mana shundan kelib chiqib, musiqaga xos bo'lgan aniq uyushtirilgan vaqtga bog'liq tuzilish (struktura) vujudga keladi.

XULOSA

Tovushning *tembri* deb uning *rang-barangligiga* deyiladi. Gap shundaki, har qanday tovush, ayniqsa musiqiy tovush, murakkab tarkibga ega. Tovush manbai (jism) butunligicha tebranib, asosiy tebranish tezligini, ya'ni eng yaxshi eshitiladigan past balandlikdagi tovushni hosil qiladi. Bu tovushga asosiy ton deb aytiladi. Biroq, shu bilan bir vaqtning o'zida jismning umumiy uzunligidan teng yarmi, uch qismdan bir, to'rttdan bir, beshdan bir va h.k. qismlari ham tebranadi. Har bir qismning tebranish tezligi o'ziga mos tovushni yaratadi. Bunday ikkinchi, uchinchi darajali marta balandroq eshitiladi. Chunki, jismning uzunligi

qancha qisqa bo'lsa, shunchalik uning tebranish tezligi oshadi va hosil bo'lgan tovushning balandligi yuqorilashadi. Ushbu qo'shimcha, tarkibiy tonlar *oberton* yoki garmoniklar deb ataladi. Asosiy ton jarangida obertonlarning qattqlik bo'yicha o'zaro nisbati, ularning bor yoki yo'qligi tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o'xshamasligini ta'kidlaydi. Masalan: qo'ng'iroqchani ko'rmay turib, uning jarangini shaqildoq jarangidan ajrata olamiz yoki onajonimizning ovoz tembri ko'p ovozlar ichida bizga «o'zgacha» bo'lib eshitiladi. Mazkur to'rtta sifat har bir tovushda, shuningdek, musiqiy fikr va obrazlar ifodalaydigan qator tovushlar birikmasida albatta namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraximjanova Gavxar va boshq. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya.
2. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОИЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 215-222.
3. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. *Academic research in educational sciences*, (3).
4. Маҳкамова, Ш. Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).